



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИШ

Илимий-методикалық журнал

№ 6.2.1 2023

гуманитарные науки
естественные науки
технические науки

1-ДЕКАБРЬ ҚАРАҚАЛПАҚ ТИЛИНЕ
МӘМЛЕКЕТЛИК СТАТУС БЕРІЛГЕН КҮН

Asarning cholg'u jo'rliqi qo'shiq kuyini aniq kuylashga yordam beradi.

Ikkinchi turdagi mashqlarni yirik asarlar-maqom, opera, balet, simfoniya konsertlaridan fragmentlar (qismlar) kuylash hosil qiladi. Shu o'rinda 6-sinf Feruz – I, Savti suvora, Nasrullo I, Ushshoqi Samarqand kabi o'zbek an'anaviy musiqasining nodir namunalari, G.Mushelning "Raqqosa" baleti, Motsartning "Figaraning uylanishi" operasi, L.Betxovinning "Uch qaxramonlik" simfoniyasi, S.Jalilning "I" simfoniyasi, N.Norxo'jayevning "Uvertyura" kabi kompozitorlik musiqa san'atining murakkab va yirik janrlarini o'rganish nazarda tutilgan. Shunday asarlardan baholi qudrat parchalar kuylash yirik asarlarning mazmun doirasini chuqurroq tushunishni, ulardan imotsional ta'sirchanlikni o'stirishga yordam beradi. Xar bir dars mavzusini yoritishda faol yoshlar aro mazmunan yaxlitlikka erishishda salmoqli omil bo'la oladi.

6-sinf musiqa madaniyati dasturiga kiritilgan asarlar aksariyati o'quvchilarda vatanparvarlik ruhini, o'z vatani tarixidan mag'rurlanish, kelajak ravnaqi uchun xizmat qilishga da'vat, his-tuyg'ularni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunday qo'shiqlarga "O'zbekiston madhiyasi" (M.Burhonov) musiqasi, "Yoshlar ramziy qo'shig'i", "Istiqlolim"(A.Mansurov musiqasi), "Yurtim kamoli" (N.Norxo'jayev), "Gulshan diyor-O'zbekiston" (SH.Ramazonov), "Biz tinchlikni istaymiz" (K.Kenjaye) asarlarini misol keltirish mumkin.

Yana bir turkumni "Ey mehribonim", "Mustahzod", "Qari navo" kabi musiqiy folklor asarlari tashkil qilinadi. Bu qo'shiqlarning badiiy va tarbiyaviy ahamiyati haqida qancha aytilsa ham oz.

"Yoshlik deydi", "Eh, orzular"(N.Norxo'jayev musiqasi), "Yoshlik yo'llari chaman" (K.Kenjaye), "Chamandagi gullarmiz" (N.Norxo'jayev musiqasi) asarlari yoshlikning yirik, beg'ubor orzulari, rang-barang dunyosini aks ettiruvchi qo'shiqlardir.

Ko'rinib turibdiki, 6-sinf uchun mo'ljallangan qo'shiqlar badiiy va mazmun jihatdan rang-barang, ma'lum bir ijrochilik malakalarini talab etadigan, shu bilan birga ular yoshiga mos holda tanlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qayumov, J. S. "Life in the Shashmaqom." Science and Education 2.Special Issue 1 (2021): 98-105.
2. Қораев, С. Б. (2020). Профессионал таълимда ўқув амалиётларини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари. Academic research in educational sciences, 1(3).
3. Usarov J. Using Teaching Methods for Development Student Competencies // International Journal of Progressive Sciences and Technologies. - 2019. - T. 15. - №. 1. - C. 272-274.
4. Usarov J. E. Competent Approach for Teaching Physics in Secondary and Post-secondary Educational Institutions // Eastern European Scientific Journal. - 2016. - №. 3.
5. Ravshanov J. F. The importance of working with terms and concepts in teaching history. - 2020.

REZYUME

Ushbu maqolada musiqa dars jarayonida o'quvchilarni ovozi rivojlantirish, innovatsion faoliyati hamda psixologik bilimdonligi va madaniyati haqida fikr mulohazalar bildirilgan hamda xonxondalik asarlarini o'rgatish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

PEZIOME

В данной статье изложены мнения о развитии голоса учащихся, инновационной деятельности, психологических знаний и культуры на уроках музыки, а также информация о преподавании корейских произведений.

SUMMARY

In this article, opinions are expressed about the development of students' voices, innovative activities, psychological knowledge and culture during music lessons, and information about teaching Korean works.

O'ZBEK MILLIY MAQOM SAN'ATINI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA ETIBOR QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: Maqom, milliy san'at, musiqa, Shashmaqom, usullar, nasr, vazn, ohang

Ключевые слова: Статус, национальное искусство, музыка, Шашмаком, методы, проза, вес, тон. Abstract:

Keywords: Status, national art, music, Shashmaqom, methods, prose, weight, melody

Maqom san'ati ko'pchilik sharq xalqlari musiqa merosida mavjud, milliy musiqaning asosini tashkil etadi. Maqomlar ma'lum tartibda yaratilgan turkumli musiqiy majmua bolib, bastakorlik ijodiyotining o'ziga xos sayqal berilgan turidir. Maqomlar keng ma'noda xalq musiqasi qomusidir. Chunki ularda, xususan Shashmaqomda o'zbek va tojik xalqlari musiqasiga xos vazn xususiyatlari, sado-ohanglar, doira usullari, she'riyat bilan xalq ashula yollarining boglanish qoidalariga asoslangan qator jabhalar o'z to'laqonli ifodasini topgan. "G'iyosul-lug'at" qomusining muallifi G'iyosuddin quyidagicha ta'riflaydi: "Maqom - pardai surudro go'yand" - «Maqom deb kuy va ashulalar pardasiga aytiladi Musiqaga doir eski manbalardan ma'lumki, maqomlarning tarixiy - nazariy va amaliy tamonlari bor. Ularning nazariy masalalari IX-XV asrlarda yashab ijod etgan Kindiy, Farobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Urmaviy; Sheroziy, Marog'iy, Jomiy va Husayniy kabi buyuk olimlarning risolalarida chuqur ilmiy asosda sharhlab berilgan. O'zbek maqom san'ati ming yillik tarixga ega. O'zbek maqomi so'zlaridagi boy ma'no barcha zamonlarda e'tirof etilgan. Yurtimizdagi "Shashmaqom", "Xorazm", "Farg'ona - Toshkent" maqomlari kuyning o'ziga xos mavqei va ijrochilik yo'li bilan ajralib turadi. Uning rivojlanishi va asrlar osha sayqal topishida davr, zamon, ijtimoiy voqelik muhim unsur sifatida o'z ta'sirini ko'rsatgan. Har bir ilmning o'z tarixi, shakllanish va rivojlanish bosqichi bo'lgani kabi maqom san'ati ham bir necha asrlik boy tarixga ega. Maqom - yetuk va o'ziga xos og'zaki professional musiqa turkum janri bo'lib, o'rta asrlarda bastakorlar tomonidan yaratilgan. Maqom - xalqimiz vujudidan sizib chiqqan ohang. Shu bois, u asrlar osha yashab kelmoqda. Afsuski, keyingi yillarda bu qutlug' va sohir san'at turiga e'tibor susaygandek edi. Lekin, Prezidentimizning milliy maqom san'atini rivojlantirish to'g'risidagi qarori ayni muddao bo'ldiki, Davlatimiz rahbari O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvida ta'kidlaganidek, biz xalqimizning noyob merosi bo'lgan maqom san'atini nafaqat yurtimizda, balki butun dunyo bo'ylab keng targ'ib qilish, kerak bo'lsa, xalqaro miqyosda maqom tanlovlarini tashkil etish ustida ishlashimiz kerak, Deya takidlashlari va aynan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan milliy merosimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, uni yoshlarga bezavol yetkazish borasidagi ezgu sa'y-harakatlar milliy maqom san'ati rivojiga ko'rsatilayotgan g'oyat ulkan e'tibor va g'amxo'rlikdan yorqin ifodasini topmoqda.

Maqom so'zi eshitilishi tanish ammo asl ma'no mohiyati uning kelib chiqish tarixi hozirgi kunda uning roli yoki qanday ahamiyat kasb etishi noma'lum bo'lgan tushuncha. Xalqimiz buni tub mohiyatini anglab yetayaptimi yoki aksincha milliylikimizdan uzoqlashib borayaptimi? Xarhil rok pop jazz turli xil tushinib tushinmay eshitadigan ashulalardan o'zimizning necha yillik tarixga ega milliy maqom ashularini eshitishimiz kerak emasmi? Shunday ekan maqom haqida so'z yuritamiz. Maqomlar Sharq musiqasiga xos bo'lgan turkumli san'at turidir. Ular asosan musulmon Sharqida keng tarqalgan bo'lib, turli mamlakatlarda har-xil nomlanadi. Jumladan, biz bilganimizdek o'zbek va tojiklarda maqom, uyg'urlarda muqom,

Ozarbayjonda mug'om, arablarda va turklarda maqam, E'ronda Dastgoh, hindlarda raga kabi. Maqomlar, ya'ni turkumli musiqa janrining ildizi VII asrlarda yashab o'tgan Borbad Marvaziyga borib taqaladi degan ilmiy farazlar mavjud.

Olimlar orasida mavjud qarashlarga ko'ra maqomlarning eng qadimiy namunalari payg'ambarlardan meros qolgan. Xususan, XVI asr ikkinchi yarmi – XVII asr birinchi choragida yashab ijod etgan vatandoshimiz, mashhur musiqachi va olim Darvish Ali Changiyning "Tuhfatus-surur" nomli risolasida xabar berishicha, avvaliga yetti payg'ambar nomlari bilan bog'liq yettita maqom bo'lgan. Bunda "Rost" maqomi – Odam alayhissalomdan, "Ushshoq" – Nuh alayhissalomdan, "Navo" – Dovud alayhissalomdan, "Hijoz" – Ayub alayhissalomdan, "Husayniy" – Yoqub alayhissalomdan va "Rahoviy" – Muhammad sallallohu alayhi vassalamdan

meros qolganligi haqqidagi rivoyatlar bayon etiladi. Muallif bu axborotni yetkazishda Xo`ja Abdulqodir ibn Marog`iy, xo`ja Safiuddin ibn Abdulmo`min, Sulton Uvays Jaloir kabi juda obro`li ustozlar fikriga tayanganligini ham ma`lum qiladi.

Shuni aytish kerakki maqomlar musiqasiga oid “maqom” atamasidan avval “yo`l” ma`nosini anglatuvchi “roh”, “tariqa”, “ravish” kabi atamalar qo`llanib kelganligini Darvish Ali Changiy bayon etgan ma`lumotlarni quvvatlashga xizmat qilishi mumkin. Olloh taolloning yer yuzidagi elchilari bo`lgan payg`ambarlarning insonlarga chinakam baxt-saodatga erishish yo`llarini ko`rsatganlar. Ulardan qolgan ma`naviy ta`limot namunalari jamoa-qavmlar orasida alohida e`zozlanib, avloddan-avlodga go`zal ruhiy meros sifatida o`tib kelgan. Inson tinglovi va idroki uchun eng ma`qul va manzur bo`lgan mukammal pardalar ham dastlab shu meros negizida (yoki uni nazariy jihatdan o`rganish asnosida) hosil etilib, so`ngra shu (parda) “yo`llar” asosida turli kuylar rivojlantirilgan (yoki kuylarning yangi namunalari ijod etilgan) bo`lsa kerak.

Shunday qilib, qadimgi dunyodan meros kelayotgan mukammal parda uyushmalari keyinchalik maqom tizimlari yuzaga kelishida, shuningdek, bastakorlar-u, xalq musiqa ijodiyoti rivojida ham muhim poydevor yanglig` ahamiyat kasb etgan.

Maqomlarda mavjud yana bir musiqiy qatlamni xalq og`zaki musiqa ijodiyotining ko`hna namunalari tashkil etadi. Hayratlanarli tomoni shundaki, maqomlarda xalq musiqasining hatto eng qadimiy namunalariga oid “izlari” ham saqlangan. Xususan bu izlarni bizgacha yetib kelgan Navro`zi Ajam, Navro`zi Xoro, Navro`zi Sabo nomli maqom asarlarida ko`ramiz. Shundayki, bu asarlarning kuy negizlarida mutaxassis olimlar tomonidan “xalq kuyining eng qadimiy namunasi” (“birlamchi chiziq” –G. Shenker) tarzida tasnif etilgan quyi oqim kuy ohanglari yaqqol namoyon bo`ladi. Bu hol bejiz emas, albatta. Ma`lumki, ko`pgina Sharq xalqlari uzoq o`tmishdan buyon Navro`z bayramini keng nishonlab, shu munosabat bilan ma`lum kuy va ashulalarni ijro etib kelganlar. O`ziga xos mavsumiy marosim musiqasi sifatida xalq an`anaviy hayotidan muqim o`rin olgan bu toifa kuylar keyinchalik maqom tizimlariga kiritilib, o`zining yuksak rivojlangan ko`rinishlarga ega bo`lganligi haqiqatga yaqin bo`lsa kerak.

Maqom manbalari qatorida “goh” (ya`ni Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh shaklidagi) kuy tizimlari ham e`tiborga molikdir. Aksariyat olimlar bu toifa kuylar negizi qadimiy kitoblarni ma`lum ohanglarda o`qish an`anasiga dahldorligini, shu jumladan “Avesto” dagi “got” madhiyalariga borib taqalishini faraz qiladilar. Bu o`rinda Avestodagi “Gatheha” so`zi keyinchalik daroy (forsiy) tiliga “Gah” shaklida o`tganligi va yana qator holatalar inobatga olinadi. Bizga ma`lum “goh” kuylarining tahlili esa bu namunalarning ildizlari faraz etilayotgan davralardan-da qadimiyroq ekanligini ko`rsatadi. Xususan, Farg`ona-Toshkent maqomlaridagi Dugoh-Husayniy I kuyi negizida ikki tayanch pardali ohang tizilmasi, Segoh cholg`u kuyida, shuningdek, Shashmaqomning Tasnifi Segoh, Xorazm Segoh maqomining Tani maqom qisimlarida esa uch tayanch pardali ohang tizimlari borligi ayon bo`ladi. Etnomusiqashunos olimlarning qo`lga kiritgan so`nggi yutuqlaridan ma`lumki, bu kabi tayanch tovushli kuy namunalari xalq musiqiy tafakkurining dastlabgi kurtaklaridir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Bundan tashqari O`zbekistonda Xorazm maqomlari turkumi ham bor. U o`z nomi bilan Xorazmda mashxur va keng tarqalgan. Xorazm maqomlari ham Shashmaqom kabi ikki bo`limdan iborat. Faqat ularning nomida farq bor. Demak, Cholg`u bo`limi -Manzum, Ashula bo`limi – Mansur deb ataladi. Vodiy tomonlarda Farg`ona-Toshkent maqom yo`llari keng tarqalgan bo`lib, ular o`ziga xosligi bilan, yengil xalqchilligi bilan ajralib turadi. Undagi yirik ashula turkumlari Bayot I-V, Chorgoh I-V, Gulyor-Shahnoz, Dugoh-Husayniy I-VII lar hisoblanadi. Maqom – ilohiy san`at. Uni ijro qilish uchun ilohiy qobilyat talab etiladi. Ota-bobolarimiz ushbu beqiyos san`atga chuqur hurmat ila qaraganlar. XVIII-XIX asrlarda bugungi O`zbekiston hududida joylashgan amirlik va xonliklarda maqomlarni buzib ijro etish mumkin bo`lmagan. Aks holda ijrochi qattiq jazolangan. Shuning o`zginasi maqomlarning qadr-qimmatiga ko`rsatilgan cheksiz hurmatdir balki. Maqomlar ustozdan-shogirdga og`zaki tarzda o`tib bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ularni nota yozuviga tushirish ishlari ham XIX asr oxirlarida Komil Xorazmiy tomonidan ixtiro etilgan “Xorazm tanbur chizig`i” yordamida Xorazm maqomlarini notaga olishdan boshlandi. Tojikistonda Boboqul Fayzullayev, Shohnazar Sohibov

va Fazliddin Shahobovlar yozuvida, Viktor Mixaylovich Belyayev tahririda 1950-yildan boshlab Moskvada nashrdan chiqarildi. Notalashtirishdagi navbatdagi ishlarda buyuk bastakor, sozanda, hofiz, akademik Yunus Rajabiy hayratomus natijalarga erishdi. Yunus Rajabiy notalashtirgan ishlari "O'zbek xalq muzikasi"ning 5-jildi "Buxoro maqomlari" nomi ostida, Ilyos Akbarov tahririda 1959-yilda chop etildi. 1966-yilda Toshkentda Shashmaqom 6 ta tomlik kitobi Fayzulla Karomatov tahririda Yunus Rajabiy yozuvida chop etiladi. Ushbu kitoblarning nashrdan chiqishi uchun ancha mehnat va mashaqqat talab etilgani tabiiy. Shu kungacha amalga oshirilgan ishlarni davom ettirish bizning bugungi burch va vazifamiz. Yangi nota kitoblarini qayta ishlab chiqarish kerak. Ushbu muammoni hal qilish ham oldindagi vazifalardan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda juda ko'p sohalarda o'zgarishlar va yangiliklar bo'ldi. Milliy mumtoz musiqamiz qayta tiklandi. Musiqaga qaratilayotgan e'tiborlar oshgandan oshmoqda. Musiqa maktablarining moddiy ba'zasini modernizatsiyalashtirish va musiqa asboblari bilan ta'minlash ishlari amalga oshirildi. Shashmaqom YUNESKOning "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi" deb tan olinishi Shashmaqom rivojlanishiga turtki bo'ldi. 2017-yilda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "O'zbek milliy maqom san'atini rivojlantirishga oid chora tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, unga ko'ra "O'zbek milliy maqom san'ati markazi" tashkil qilindi. Har bir viloyatda maqom ansambllari tashkil etildi. Dastlab, O'zbekiston davlat konservatoriyasida "O'zbek maqomi san'ati" nomli fakultet tashkil etildi. Uning ijrochiligi bilan bir qatorda tarixi va nazariyasi ham e'tibordan qolmadi. Buning isboti sifatida "O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" kafedrasini tashkil etilganligini keltirish mumkin.

XULOSA. Har ikki yilda Shahrisabz shahrida Xalqaro Maqom anjumani bo'lib o'tadigan bo'ldi va uning tarkibida ijrochilik tanlovlaridan tashqari ilmiy-amaliy konferensiya ish yurita boshladi. 2021 yil sentabr oyidan boshlab Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti o'z faoliyatini boshladi. So'ngi yillardagi o'zgarish va yangilanishlar musiqada xususan, maqomlarda ham o'z aksini topmoqda. O'ylaymizki bizning o'zbek milliy maqomlarimiz jahon miqyosida shahdam qadamlar bilan o'zni butun dunyoga tanitadi.

Adabiyotlar

- 1.O'zbekiston milliy ensklopediyasi Toshkent 2000-2005
- 2.I.Akbarov Musiqa lug'ati Toshkent 1987
- 3.Sh.Abdugapporova Maqom asoslari Toshkent 2015
- 4.I.Rajabov Musiqa tarixi 2014
- 5.Yunusov O.O'zbek milliy san'atini o'quvchi-yoshlarning ongiga singdirish yo'llari .Science and education scientific journal issn 2181-0842 volume 1, special issue 4 december 2020 304-306 betlar.

REZYUME

Ushbu maqolada maqom san'ati va uning bugungi kundagi ravnaqi, uni o'rganish va yosh ijrochilarga o'rgatishga doir bo'lgan masalalar va bu borada foydali maslahatlar berilgan. Ushbu maqola maqom san'atiga qiziquvchi yoshlar uchun umumiy ma'lumotlar beradi hamda ularning maqom haqidagi tasavvurlarini boyitadi.

РЕЗЮМЕ

В этой статье рассматривается искусство статуса и его современное развитие, вопросы, касающиеся его изучения и обучения молодых исполнителей, а также полезные советы по этому поводу. эта статья предоставляет общую информацию для молодых людей, интересующихся статусным искусством, а также обогащает их восприятие статуса.

SUMMARY

This article provides useful advice on the art of makom and its current development, issues related to its study and training of young performers. This article provides general information for young people interested in the art of maqom and enriches their understanding of maqom.